

TIBBIYOTDA QO'LLANILISHIGA DOIR YO'RIQNOMA KANDIGO

Preparatning savdo nomi: Kandigo

Ta'sir etuvchi modda (XPN): klotrimazol

Dori shakli: vaginal suppozitoriyalar

Tarkibi:

har bir vaginal suppozitoriy quyidagilarni saqlaydi:

faol modda: klotrimazol 100/500 mg;

yordamchi moddalar: qattiq yog' (Suppocire NAI 25 A).

Ta'rifi: oq rangdan och-sariq ranggacha torpeda shaklidagi suppozitoriyalar.

Farmakoterapevtik guruhi: ginekologiyada qo'llaniladigan mikroblarga qarshi preparatlar va antiseptiklar. Majmuaviy kortikosteroidlardan tashqari, mikroblarga qarshi preparatlar va antiseptiklar. Imidazol hosilalari. Klotrimazol.

ATX kodi: G01AF02

Farmakologik xususiyatlari

Farmakodinamikasi

Mexanizm xarakati

Azollar (masalan, Klotrimazol) odatda vulvovaginal kandidozni mahalliy davolash uchun tavsiya etiladi, bu qichishish, yonish, qinda qizarish, shishish va og'riq kabi vulvovaginal alomatlar bilan tavsiflanadi.

Klotrimazol ergosterol sintezini susaytirish orqali zamburug'larga qarshi ta'sir ko'rsatadi. Ergosterol sintezining susaytirilishi zamburug'ssitoplazmatik membranasining tarkibiy va funksional etishmovchiligiga olib keladi.

Klotrimazol keng *in vitro* va *in vivo* sharoitida antimikotik ta'sir doirasiga ega bo'lib, u dermatofitlar, achitqi va mog'or zamburug'larini va boshqa zamburug'larni o'z ichiga oladi.

Taalluqli sinov sharoitlarida ushbu turdagi zamburug'lar uchun MIC miqdorlari 0,062-8,0 mkg / ml kamroq substrat doirasida bo'ladi. Klotrimazolning ta'sir ko'rsatish mexanizmi, klotrimazolning yuqumli kasalliklar o'chog'idagi konsentratsiyasiga qarab, fungistatik yoki fungitsid ta'sirga ega bo'ladi. *In vitro* sharoitida faolligi zamburug' elementlari ko'payishini to'xtatadi, biroq zamburug'lar sporalarining unga sezuvchanligi kam bo'ladi.

Zamburug'lar sezuvchan turlarining birlamchi rezistentligi juda kamdan-kam uchraydi, sezuvchan zamburug'larning ikkilamchi rezistentligi faqat ayrim hollarda terapiya ta'sirida kuzatilishi mumkin.

Farmakokinetikasi

Farmakokinetik tadqiqotlarda vaginal qo'llangandan so'ng klotrimazolning faqat kichik miqdori (dozaning 3-10% i) so'rilishi isbotlangan.

Jigarda tez metabolizmi tufayli klotrimazolning farmakologik jihatdan faol bo'lmagan metabolitlari, 500 mg doza vaginal qo'llangandan so'ng klotrimazolning plazmadagi konsentratsiyasi yakuniy cho'qqisi 10 ng/ml dan kamroq ko'rsatkichni tashkil etadi, bu esa klotrimazolning intravaginal qo'llanishi sezilarli tizimli buzilishlarga yoki nojo'ya ta'sirlarga olib kelmasligini tasdiqlaydi.

Qo'llanilishi

Kandigo suppozitoriysini tanosil a'zolaridagi infeksiyalarni (vaginitlar) davolash uchun tavsiya etiladi, zamburug'lar tufayli kelib chiqqan (*Candida* turi) va klotrimazolga sezgir bakteriyalar tufayli kelib chiqqan superinfeksiyalar.

Qo'llash usuli va dozalari

Suppozitoriy qinga imkon qadar chuqurroq joylashtirilishi kerak. Bunga chalqanchasiga yotgan, tizzalar bukilgan va tizzalar ko'krakka tortilgan holatda eng yaxshi tarzda erishish mumkin. Zarur hollarda, takroriy davolash o'tkazilishi mumkin.

Kandigo suppozitoriysi to'liq erib ketishi uchun qin namlanishi kerak, aks holda suppozitoriylarning erimay qolgan bo'laklari qindan chiqib ketishi mumkin. Suppozitoriylarning erimay qolgan bo'laklari vaginal quruqlikka ega ayollarda kuzatilishi mumkin. Buning oldini olish uchun suppozitoriy kechki payt qinga imkon qadar chuqurroq joylashtirilishi kerak.

Kattalar:

Kandigo 100 mg vaginal suppozitoriylari

100 mg dan ikkita suppozitoriy ketma-ket uch kun davomida har kuni (ko'proq kechqurun) qo'llanishi kerak. Muqobil tarzda, olti kun davomida har kuni bitta suppozitoriy qo'llanishi mumkin.

Keksa yoshdagilar uchun maxsus dozalash rejimi mavjud emas..

Kandigo 500 mg vaginal suppozitoriylari

500 mg dan bitta suppozitoriy kechki payt qinga qo'yilishi kerak; suppozitoriy qinga imkon qadar chuqurroq joylashtirilishi kerak.

Umumiy ko'rsatmalar:

Bolalar:

Kandigo 100 mg va 500 mg vaginal suppozitoriylari 16 yoshdan kichik bo'lgan bolalarga qo'llanilmaydi.

Nojo'ya ta'sirlari

Qayd etilgan nojo'ya ta'sirlar spontan xabarlariga asoslanganligi tufayli ulardan har birining aniq paydo bo'lish tezligini aniqlash mumkin emas.

Immun tizim tomonidan buzilishlar: anafilaktik reaksiyalar, angionevrotik shish, yuqori sezuvchanlik.

Qon-tomir tomonidan buzilishlar: xushdan ketish, gipotoniya.

Nafas olish tizimi, ko'krak qafasi va ko'ks oraligi organlarning buzilishi: nafas qisilishi.

Me'da-ichak yo'llari tomonidan buzilishlar: qorindagi og'riq, qayt qilish.

Teri va teriosti to'qimalar tomonidan buzilishlar: toshma, eshakemi kasalligi, qichishish.

Reproduktiv tizim va sut bezlari tomonidan buzilishlar:

Genital sho'ralash, qindan ajratmalar chikishi, vaginal qon ketish, vaginal noqulaylik hissi, vulvovaginal eritema, vulvovaginal qizarish hissi, vulvovaginalny kishish, vulvovaginal og'riq.

Umumiy buzilishlar va qo'llangan joydagi reaksiyalar: surtilgan joyda qizarish, shish, og'riq.

Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar

Mazkur preparatning faol moddasiga yoki istalgan boshqa komponentiga yuqori sezuvchanlikda qo'llash mumkin emas.

Dorilarning o'zaro ta'siri

Laboratoriya tadqiqotlarida isbotlanganki, bir vaqtda foydalanishda mazkur dori vositasi lateksli kontratseptivlar shikastlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Taalluqli ravishda, ushbu kontratseptivlar samaradorligi pasayishi mumkin. Bemorlarga mazkur dori vositasi qo'llangandan so'ng eng kamida besh kun davomida muqobil ehtiyotkorlik choralaridan foydalanishlari tavsiya etiladi.

Klotrimazol bilan vaginal qo'llanish yo'li orqali va peroral shaklda takrolimus (FK-506; Immunosupressor) bilan bir vaqtda davolash plazmada takrolimus va xuddi shunday sirolimus darajasi oshirilishiga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, bemorlar, zarur hollarda, plazmada taalluqli darajalarni aniqlash yo'li orqali takrolimus yoki sirolimusning ortiqcha dozalanish alomatlari va simptomlarini puxta nazorat qilishlari kerak.

Maxsus ko'rsatmalar

Bemorlarning birinchi marta kandidozli vaginit simptomlari paydo bo'lsa davolovchi shifokor bilan maslahatlashishi kerak.

Kandigo suppozitoriylari qo'llanishidan oldin quyidagi sharoitlardan ayrimlari mavjud bo'lgan taqdirda, davolovchi shifokor bilan maslahatlashishi kerak:

- so'nggi 6 oy davomida kandidozli vaginitning ikkitadan ko'proq yuqumli kasalliklari kuzatilgan.
- kasallik tarixida jinsiy yo'l bilan o'tadigan boshdan kechirilgan kasalliklar mavjud yoki shunday holat sherigida aniqlangan.
- homiladorlik yoki homiladorlikka taxmin qilingan.
- 16 yoshdan kichik yoki 60 yoshdan katta yoshdagilar.
- imidazolga yoki boshqa vaginal zamburug'ga qarshi dori vositalariga ma'lum yuqori sezuvchanlik.

Kandigo suppozitoriylari tibbiy yordam uchun murojaat qilinganda quyidagi simptomlardan ayrimlariga ega bemorlar tomonidan qo'llanmasligi kerak:

- nomuntazam vaginal qon ketishi.
- anomal vaginal qon ketishi yoki qonli ajratmalar.
- vulva yoki hazna yarasi, bullyozli shikastlanish yoki yiringli yaralar.
- qorinning pastki bo'limlaridagi og'riq yoki dizuriya.
- davolash bilan bog'liq qizarish, yallig'lanish yoki shishish kabi har qanday nojo'ya reaksiyalar.
- isitmalash yoki et uvushishi.
- ko'ngil aynishi yoki qayt qilish.
- diareya.
- qindan yomon hidli ajratmalar.

Hayz ko'rish davrida davolashni o'tkazish tavsiya qilinmaydi chunki suppozitoriy hayz ajratmalari bilan birga yuvilib ketish xavfi bor. Davolashni hayz ko'rish boshlanishidan oldin tugatish kerak.

Ushbu mahsulotdan foydalanganda tamponlardan, intravaginal purkab yuvishdan, spermitsidlardan yoki boshqa vaginal vositalardan foydalanmang.

Vaginal infektsiya bo'lganda va ushbu mahsulotni qo'llash paytida vaginal jinsiy aloqadan saqlanish kerak, chunki infektsiya sherikga yuqishi mumkin.

Agar Kandigo suppozitoriysi qo'llanganda bir hafta ichida simptomlar engillashishi boshlanmasa, bemorlar davolovchi shifokor bilan maslahatlashishlari kerak. Agar kandidozli yuqumli kasallik 7 kundan so'ng yana paydo bo'lsa, Kandigo suppozitoriysidan qayta foydalanish mumkin. Biroq kandidozli yuqumli kasallik olti oy davomida ikki martadan ko'proq takrorlansa, bemorlar davolovchi shifokor bilan maslahatlashishlari kerak.

Homiladorlik va laktatsiya davrida qo'llanishi

Homiladorlik:

Homilador ayollarda klotrimazol qo'llanishi to'g'risida etarlicha cheklangan hajmli ma'lumotlar mavjud. Hayvonlarda o'tkazilgan tadqiqotlarda klotrimazol qo'llanganda yuqori peroral dozalarda reproduktiv toksiklik aniqlangan. Vaginal davolashdan so'ng klotrimazolning quyi tizimli ta'sirlarida reproduktiv toksiklikka nisbatan zararli ta'sirlar taxmin qilinmaydi.

Laktatsiya:

Klotrimazolning ona sutiga kirishi haqida hech qanday ma'lumot yo'q. Biroq, qabul qilinganidan keyin tizimli so'rilish minimal va tizimli ta'sirga olib kelishi mumkin emas. Klotrimazol laktatsiya davrida qo'llanilishi mumkin.

Fertillik:

Klotrimazolning odam fertilligiga ta'siri yuzasidan hech qanday tadqiqotlar o'tkazilmagan, biroq hayvonlarda o'tkazilgan tadqiqotlarda dori vositasining fertillikka hech qanday ta'siri aniqlanmagan.

Transport vositalari va boshqa mexanizmlarni boshqarish qobiliyatiga ta'siri

Dori vositasi transport vositasini boshqarish yoki turli mexanizmlar bilan ishlash qobiliyatiga ta'sir ko'rsatmaydi yoki biroz ta'sir ko'rsatadi.

Dozani oshirib yuborilishi

O'tkir intoksikatsiya xavfi namoyon bo'lmaydi, chunki yagona vaginal yoki dermal qo'llanishdan so'ng ortiqcha dozalash (absorbsiya uchun qulay sharoitlarda katta maydonga qo'llanishshi) yoki bilmasdan peroral yutib yuborish ehtimoli kam. Maxsus zaharga qarshi dori yo'q. Biroq tasodifan yutib yuborilganda me'dani yuvish kabi tegishli tadbirlar ortiqcha dozalashning klinik simptomlari (masalan, bosh aylanishi, ko'ngil aynishi yoki qayt qilish) aniq namoyon bo'lgan holatdagina amalga oshirilishi kerak. Me'dani yuvish nafas yo'llarini tegishli himoyalash mumkin bo'lgan holatdagina o'tkaziladi.

Chiqarilish shakli

Kandigo 100 mg vaginal suppozitoriylar:

6 vaginal suppozitoriy PVX/polietilen stripda, 1 stripdan tibbiyotda qo'llanilishiga doir yo'riqnomasi bilan birga karton o'ramda.

Kandigo 500 mg vaginal suppozitoriylar:

1 vaginal suppozitoriydan PVX/polietilen stripda, 1 stripdan tibbiyotda qo'llanilishiga doir yo'riqnomasi bilan birga karton o'ramda.

Saqlash sharoiti

Quruq, yorug'likdan himoyalangan joyda 25°C dan yuqori bo'lmagan haroratda saqlansin. Bolalar ololmaydigan joyda saqlansin.

Yaroqlilik muddati

3 yil.

Yaroqlilik muddati o'tgach qo'llanilmasin.

Dorixonadan berish tartibi

Retseptsiz.

Ishlab chiqaruvchi

Kusum Healthcare Pvt. Ltd.

Manzili

SP-289(A), RIICO Industrial Area, Chopanki, Bhiwadi, Dist. Alwar (Rajasthan) Hindiston.

O'zbekiston Respublikasi hududida dori preparatlarining sifati bo'yicha e'tirozlar (takliflar)ni qabul qiluvchi tashkilot nomi va manzili:

“BARAKA DORI FARM” MChJ XK

100022, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Xalka Yuli ko'chasi, 91-uy.

Tel.: +998 (78) 150 97 97; faks: +998 (78) 1509787

Mob.: +998 (93) 388 87 82;

E-mail: pv@kusum.uz

Web-sayt: kusum.uz